



O'ZBEKISTON PREZIDENTI BELARUS DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20-iyul kuni Belarus Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari Viktor Karankevich boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning samimiy

salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi. O'zbekiston bilan Belarus o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada

kengaytirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. Mamlakatimiz yetakchisining shu yil 8-9-iyul kunlari Minsk shahriga

amalgam oshirgan rasmiy tashrifi, eng avvalo, savdo-iqtisodiy sohada samarali natijalar bergani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash hajmini 2 milliard dollarga yetkazish hamda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida kooperatsiya loyihalarini ilgari surish maqsadida qabul qilingan chora-tadbirlar rejasini o'z vaqtida amalga oshirish muhimligi ta'kidlandi.

Yurtimizda birinchi atom elektr stansiyasi va turdosh infratuzilmani barpo etishda Belarus tajribasidan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bo'lajak atom elektr stansiyasini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish jarayonlarini ekspertlik jihatidan qo'llab-quvvatlash, soha uchun milliy kadrlarni tayyorlash hamda tegishli oliy ta'lim muassasalari o'rtasida qo'shma dasturlarni yo'lga qo'yish shular jumlasidan.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

ICHIMLIK VA OQOVA SUV XIZMATLARI SIFATLI HAMDA ZAMON TALABLARIGA MOS BO'LADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ichimlik va oqova suv xizmatlarini yanada yaxshilash chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

So'nggi yillarda sohaga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10 karra oshib, 2,7 milliard dollarga yetdi. Natijada aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 2017-yildagi 63 foizdan qariyb 83 foizga ko'tarildi.

Shu davrda 7,7 million aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlandi, 11 million aholining suv ta'minoti yaxshilandi, yana 1,1 million kishi kanalizatsiya tizimiga ulandi. 39 ming kilometr ichimlik suvi va 3,2 ming kilometr oqova suv tarmoqlari qurilib, rekonstruksiya qilindi. 3,4 mingta ichimlik suvi inshooti, 295 ta oqova suv inshooti va nasos stansiyasi barpo etildi hamda yangilandi.

Kelgusi yillarda ichimlik suvi ta'minoti 90 foizga, shaharlarda kanalizatsiya xizmati qamrovini 80 foizga yetkazish maqsad qilingan. Buning uchun qo'shimcha 1,3 milliard dollar investitsiya jalb etilishi ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari erishilgan natijalar bilan birga loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish, mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish tizimi hali talab darajasida emasligini ko'rsatib o'tdi.

Xususan, Andijon shahridagi kanalizatsiya tizimida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish uchun 107 milliard so'm ajratildi. Sergeli tumanida yoqimsiz hid tarqalishining oldini olish maqsadida zamonaviy filtrlarni o'rnatish ishlari boshlandi.

Surxondaryo viloyati aholisini To'polang suv omboridan ichimlik suvi bilan ta'minlash loyihasi doirasida Termiz shahrigacha tarmoq tortib kelindi. Yil yakuniga qadar Sherobod, Muzrabot, Angor va Jarqo'rg'on tumanlariga ham suv yetkazib berilishi belgilandi.

Taqdimotda hududlardagi eng dolzarb masalalarni hal qilishga qaratilgan aniq vazifalar ko'rsatib o'tildi. Jumladan, 513

ta mahallaga markazlashgan ichimlik suvini olib borish, yana 3 mingta mahallada ta'minot sifatini yaxshilash zarurligi ta'kidlandi.

Ichimlik suvini xonadongacha yetkazish ishlarini to'liq yakunlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda 232 mingta suv kolonkasi o'rni tarmoqlarni bevosita uylargacha tortish ko'zda tutilgan.

Yil yakuniga qadar umumiy qiymati 600 million dollarlik ishlar amalga oshirildi. Ularning doirasida 1,6 ming kilometr ichimlik suvi va 387 kilometr kanalizatsiya tarmog'i, 80 ta suv hamda 29 ta oqova suv inshooti quriladi.

Natijada 107 ta mahalladagi 310 ming aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanadi, 453 ta mahallada istiqomat qiluvchi 2,5 million aholi uchun suv ta'minoti yaxshilanadi.

Qashqadaryo viloyatida Hisorak suv omboridan ichimlik suvi olib kelish loyihasini jadallashtirish vazifasi qo'yildi. Qiymati 217 million dollar bo'lgan ushbu loyiha Qamashi, G'uzor va Qarshi tumanlari hamda Qarshi shahridagi 1,1 million aholining ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash imkonini beradi.

Mutasaddilarga loyiha texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari ekspertizasini qisqa muddatda yakunlash va moliyalashtirish manbasini aniqlash topshirildi. Shuningdek, Farg'ona, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida ichimlik va oqova suv tizimlarini rivojlantirish bo'yicha qarz va grant bitimlarini imzolash, poytaxtda yangi kanalizatsiya inshootini qurish loyihasi yuzasidan yakuniy xulosa kiritish vazifalari belgilandi.

1-sentabrga qadar umumiy qiymati 317 million dollarlik 6 ta loyiha bo'yicha xorijiy hamkorlar bilan muzokaralarni yakunlash va moliyalashtirish manbalarini belgilash zarurligi qayd etildi.



Senat qo'mitasida XALQARO HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLOVCHI QONUNLAR MUHOKAMASI

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi majlisida O'zbekistonning xalqaro hamkorligini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim qonunlar dastlabki tarzda muhokama qilindi.



Xususan, "Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining Toza energiya markazi ustavini (Ashxobod, 2021-yil 27-noyabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonunni ko'rib chiqish mobaynida ta'kidlanganidek, bugungi kunda energiya xavfsizligini ta'minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish xalqaro hamjamiyatning ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Mazkur hujjatning ratifikatsiya qilinishi O'zbekistonning ushbu yo'nalishdagi xalqaro hamkorligini yanada kengaytirish, "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini izchil joriy etish hamda barqaror energetika sohasidagi qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi.



HUQUQIY NORMALARDA INSON MANFAATLARI KAFOLATI



Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Fraksiyalar hayoti

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ijaraga berish muddati o'zgarmoqda

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida bo'xona o'ldirish jazo qonunini o'zgartirish haqida qonunni ko'rib chiqildi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Fraksiya a'zolari qonun

loyihasi bo'xona sohasida huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirishga, jazo choralarinin mutanosibligini ta'minlashga hamda bo'xona organlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilganini ta'kidlab, uni qo'llab-quvvatladi.

Shundan so'ng yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni tizimlashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama qilindi.

Yig'ilishda aytilganidek, qonun loyihasi bilan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ijaraga berish muddatini amaldagi o'ttiz yildan qirg to'qqiz yilga uzaytirish taklif etilmoqda. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini ijaraga berishning eng ko'p muddati esa qirg to'qqiz yil qilib belgilanmoqda. Shuningdek, chet el fuqarolari va yuridik shaxslari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga qishloq xo'jaligi yerlaridan ikkilamchi ijara huquqi asosida foydalanish tartibi nazarda tutilmoqda.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.



AHOLINING QANCHA QISMI KO'P QAVATLI UYLARDA YASHAMOQDA?



Факт ва рақамлар

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirining dastlabki natijalariga ko'ra, mamlakatimiz nufusining **4,8 mln. nafari** ko'p qavatli uylardagi xonadonlarda istiqomat qiladi.

Bu jami aholining **12,4** foizini tashkil etadi.



Odamlarning yashash joyi turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

– shaxsiy yakka tartibdagi hovlilarda **33,3 mln.** kishi – 85,3 foiz;

– ko'p qavatli uylardagi xonadonlarda **4,8 mln.** kishi – 12,4 foiz;

– boshqa turdagi turarjoylarda **927,3 ming** kishi – 2,3 foiz. (Mazkur turdagi turarjoylarda dala-hovli, yotoqxona, mehmonxona va boshqa yashash joylari kiradi).

Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligiga

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston jahon hamjamiyati bilan hamkorlikda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lidan qat'iyat bilan bormoqda. Biz bu yangi Uyg'onish davrini ilm-fan, innovatsiyalar, zamonaviy ta'lim, jamiyatning ma'naviy-intellektual o'sishi, boy tarixiy merosimizga chuqur hurmat va har bir insonning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarishga asoslangan yangi taraqqiyot bosqichi sifatida ko'ramiz.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

INTELLEKTUAL TARAQQIYOT

jamiyat ravnaqining hal qiluvchi strategik kuchidir

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda ilk bor o'tkazilgan Islom sivilizatsiyasi xalqaro forumi ishtirokchilariga yo'llagan murojaatida jadal o'zgarishlar va texnologiyalar mislsiz sur'atlarda rivojlanayotgan hozirgi davrda aynan ilm-ma'rifat, ma'naviy va intellektual taraqqiyot jamiyat ravnaqining hal qiluvchi kuchi ekanini alohida ta'kidladi. Ayniqsa, bugungi notinch va tahlikali dunyoda faqat ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat hamda yuksak axloqiy qadriyatlariga Yer yuzida tinchlik, o'zaro tushunish, ijtimoiy hamjihatlik va barqaror rivojlanish uchun ishonchli poydevor bo'la olishi isbot talab qilmaydigan haqiqat ekani kunday ravshan bo'lib bormoqda.

Shu bois mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni bunyod etishning bugungi hal qiluvchi bosqichida ilm-fanni rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlarini asrash va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, o'z hayotini mazkur soha rivojiga baxsh etgan ma'rifatparvar insonlar, olim va allomalar boy ilmiy merosini abadiylashtirish ustuvor vazifaga aylandi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan bunyod qilingan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, shubhasiz, ushbu yo'nalishdagi ishlarining gultoji bo'ldi, desak, ayni haqiqat. Zero, u o'tmish bilan kelajakni, Sharq bilan G'arbni, qadim an'analardan zamonaviy ilmiy yutuqlarni o'zaro bog'laydigan bamisoli intellektual ko'prikdir.

Yangi tamaddun ostonasi

Tarixdan ayon, qayerdagi ilm ahliga alohida e'tibor qaratilib, ularning zahmatli mehnati qadrlansa, munosib sharoit yaratilsa, o'sha joyda ilm-ma'rifat, fan va ta'lim gullab-yashnab, buyuk o'zgarishlarga asos bo'lgan. Bunga bir emas ikki Uyg'onish davriga beshik bo'lgan zaminimizda jonli misollar juda ko'p. Jahondagi eng qadimiy ilmiy maskanlar aynan yurtimiz hududida bunyod etilgani shunday deyishimizga asos bo'la oladi.

Darhaqiqat, zaminimizda xorazmshoh ma'muniylar sulolasi tomonidan ilm-ma'rifatga ochilgan irmoq vaqt kelib, temuriylar davrida ulkan daryoga aylandi. Uning zilol suvlari temuriylar davrida nafaqat Sharq, balki butun olamga ilm-fan va ma'rifat urug'ini yoyib, mo'l-ko'l hosil berdi. Ya'ni "Markaziy Osiyoda musulmon renessansi" deya nom olgan birinchi Uyg'onish davri IX – XII asrlarda osmon qadri bo'ylagan bo'lsa, ikkinchi XIV – XVI asrlarda kuzatilgan. Bugun esa navbatdagi tamaddun – uchinchi Renessans bo'sag'asida turibmiz.

Ma'lumki, Renessans inson ehtiyojlari, erkinliklari va huquqlarini ta'minlashdan boshlanadi. Shu ma'noda, bugun olamshumul o'zgarishlarga guvoh bo'lgan qutlug' zaminimizda navbatdagi evrilishlarga mustahkam poydevor qo'yilayapti: inson qadri ulug'lanayapti, yoshlarga keng imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda. Zotan, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlar inson qadriini ko'tarish, uning huquq va manfaatlari himoyasini kuchaytirishdek ezgu maqsadga yo'g'rilgan. Ayni chog'da Prezidentimizning siyosiy irodasi tufayli erkin va demokratik siyosiy muhit, adolati jamiyat, ilm-fan rivoji uchun qulay shart-sharoit yaratilmoqda.

Bu davlatimiz rahbarining "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanimiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak", degan da'vatiga hamohang olib borilayotgan tizimli yangilanishlarning amaldagi in'ikosidir. O'tmishga boqib xolis tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakat boshqaruvida olib borilgan odil siyosat, davlatning ilm-ma'rifatga kuchli e'tibori, ta'lim-tarbiya ustuvor etib qo'yilgani har ikkala Uyg'onish davrida ham eng muhim

jihat bo'lgan. Qolaversa, odamlarda ilm-fanga tashnalik bilan birga, borliq sirlarini o'chish va yangi ilm yaratishga ishtiyoq kuchli bo'lgan. Natijada olimlarimiz o'zlari sezmaydigan holda Renessans davrinin bunyodkorlariga aylangan.

Masalaga ana shu jihatdan yondashilsa, oxirgi o'n yillikda asrlarga tatigulik o'zgarishlar ro'y berganini alohida e'tirof etish joiz. Binobarin, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tinchlik siyosatini, barcha sohada olib borilayotgan inqilobiy islohotlarni, xalqaro miqyosdagi do'st-u birodarlik munosabatlarini, xususan, ilm-fan, ta'lim yo'nalishidagi mislsiz innovatsion yangilanishlar, olim va ziyolilarga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, yoshlar ta'lim-tarbiyasi yo'lida bajarilayotgan ko'lamdori ishlarni ma'rifatparvar Xorazmshoh Ali ibn Ma'munning, adolatparvar sohibqiron Amir Temurning tutumlariga qiyoslash mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning davlat rahbari sifatida asosiy siyosiy islohotlarining bosh maqsadi O'zbekistonni rivojlangan, har tomonlama ilg'or mamlakatga aylantirish bo'lib, jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiyalar bunga erishish yo'li sifatida tanlangan.

Muzlarni eritgan tashabbus

Yangi O'zbekiston solnomasiga bitilayotgan tarixiy evrilishlar xorijlik olimlarning diqqat e'tibori markazida bo'lib turibdi. Yaqinda AQShning Nyu-York shtatida yashaydigan olim, biologiya fanlari doktori, professor, akademik Efroim Gurman bilan suhbatlashib, bugun yana bir karra ishonch hosil qildim.

Olim shunday dedi: "Prezident Shavkat Mirziyoyev dunyo davlatlari rahbarlari orasida birinchi bo'lib "Xalqimiz kelajakda emas, bugun ham yaxshi yashashi kerak" degan ulug' maqsad, ezgu vazifani ilgari surdi va buning yechimini ham topib berdi. Ayniqsa, uning uchinchi Renessans g'oyasi nihoyatda ajoyib. Sababi, bugungi ilm-u fanga asoslangan, dunyoni faqatgina ilm bilan boshqarish mumkin bo'lgan zamonda shunday g'oyalargina qudratli kuch kasb eta oladi".

Kuzatayotgan bo'lsangiz, O'zbekistonda keyingi yillarda ilm-fan, ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zaminida ana shu qat'iyat, intilish o'z ifodasini topib boryapti. Bu uchinchi Renessans quyoshi uyg'onayotganidan dalolat. Shuning uchun biz, olimlar yangi tamaddun uzoq istiqbolida emas, aksincha, bizning zamonamizda ro'y beradi, degan qat'iy pozitsiyadamiz.

Axir taraqqiyot ilimga asoslanadi. Uning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Shular haqida so'z yuritilganda, yodimga yaqin o'tgan kunlar tushaveradi. Buni o'tmishga tosh otishga yo'ymang. Negaki, tarixni parda bilan to'sib bo'lmaydi. Istiqloлга erishilgandan keyingi ilk yillarda ilm va ilm ahli "unutilgani" hammamizning yodimizda. Garchi o'sha kezlarda

matbuotda bu haqda bong urilgan, yozuvchilar asarlarida "Ippodrom"da sigaret sotayotgan olim obrazi paydo bo'lgan esa-da, negadir jamiyat buni "o'tish davri hosilalari" deb bildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning jabrini uzoq tortdik. Eng yomoni, bir avlod ongiga "O'qib nima bo'larding?" degan mafkura singib qoldi. Aynan shuni dahshatli qildi. Zotan, ilimga rag'batning yo'qolishi jamiyatda yangi bir qatlamning – diplom uchun o'qiydiganlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Albatta, bu qisqa bir fursatning bergan "meva"lari edi.

Shavkat Mirziyoyev davlatimiz rahbari etib saylangach, ta'lim, ilm-fan sohasidagi muzlar eriy boshladi. Yurtboshimiz 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatning yetakchi ilm-fan namoyandalari, akademiklar bilan uchrashuvda jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin ekanini ta'kidlab, barcha soha qatorida ilm-fan rivojini ham yangi bosqichga ko'tarish vazifasini qo'ydi. Natijada bamisoli qurib-qaqshab yotgan yerlarga obihoyat kirib keldi. Boisi, jahonning yetakchi institutlari, universitetlari, ilmiy markazlari va fanlar akademiyalari bilan ilmiy aloqalar tiklandi. Xorijning yetakchi o'quv va ilmiy muassasalarida ta'lim va ilmiy daraja olgan yurtdoshlarimiz uchun mamlakatimizda qulay shart-sharoitlar yaratib berish, ularni rag'batlantirish yuzasidan aniq ko'rilgan chora-tadbirlar kutilgan samaralarni bera boshladi. Bu mamlakatimizda ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirilgani tufaylidir.

“Davlatimiz yetakchisi ham islohotlar shiddati yil sayin ortib borayotgan hozirgi sharoitda hamma masalaning yechimini ta'limda, ilmda ko'rmoqda. Negaki, global raqobat sharoitida mamlakatlarning ustunligi, avvalo, bilim, texnologiya va inson kapitali bilan belgilanadi. Prezidentimiz yaqinda mamlakat yoshlari bilan uchrashuvda ularga qaratayotganidek, “bugungi kunda davlatlar hududi bilan emas – bilimi bilan, aholi soni bilan emas – texnologiyasi bilan, tabiiy boyliklari bilan emas – inson kapitali bilan raqobatga kirishmoqda. Endi zamonaviy ilm-fan va tafakkur mahsulul bo'lgan yangi iqtisodiyot – bilimlar iqtisodiyoti hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda”.

Albatta, oxirgi o'n yillikda oilada farzand tug'ilganidan boshlab, kamolot yoshiga yetgunga qadar uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishiga xizmat qiladigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratildi. Mazkur jarayonda inson kapitaliga e'tiborni yanada kuchaytirish, buning uchun barcha imkoniyatni safarbar qilish borasida muhim dastur va loyihalar amalga oshirilyapti. Bunda uchinchi Renessansning to'rt tayanch ustuni deya e'tirof etilgan bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, oliygohtlarning professor-o'qituvchilari va ilmiy-ijodiy ziyolilar kuchiga tayanilayotgani diqqatga sazovor. Eng muhimi, ularning hamkorlik e'tiborini oshirish, xususan, muallim va ustozlarning qadri, sha'ni hamda g'ururini tiklash, mashaqqatli, ayni paytda sharafli mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha ishlar yangi pog'onaga ko'tarildi.

Yuksalish ta'lim-tarbiyadan boshlanadi

Ta'lim tizimidagi, xususan, oliy ta'limda bugungi kunda ro'y berayotgan sifati o'zgarishlarini bundan o'n yil oldingi holat bilan mutlaqo taqqoslab bo'lmaydi. Shu sohani ichidan yaxshi bilgan biz, professor va akademiklar ilmiy faoliyatimiz misolida bunga yaqqol guvohmiz. Davlatimiz rahbari aytganidek, "ilm va izlanish bo'lmagan joyda hech qanday rivojlanish, yuksalish va umuman,

biror-bir sohaning kelajagi bo'lmaydi". Bugun mamlakatimizda oliy ta'lim tizimi isloh qilinib, oliy o'quv yurtlarini dunyo tan olgan ilm-ma'rifat, ta'lim va innovatsiya markaziga aylantirish borasida olib borilayotgan ezgu ishlar zaminida ham ana shu hayot haqiqati yotibdi.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalari soni qisqa vaqt ichida 215 taga yetgani, eng asosiysi, ularning qariyb 100 tasi nodavlat oliy o'quv yurtlari hisobiga to'g'ri kelayotgani e'tiborga molik jihat. Pirovardida oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 44 foizga, talabalar soni esa 270 mingdan 1,7 mln. nafarga yetdi. Shuningdek, xorijiy tillarni intensiv o'rganayotgan yigit-qizlar soni 3,5 mln.dan oshish arafasida. Iqtidorli o'quvchi va talabalar nufuzli fan olimpiadalarida 434 ta, yosh sportchilar xalqaro musobaqalarda 2 245 ta medalni qo'lga kiritdi.

Oliy ta'limdagi yangilanishlar faqat sonda emas, balki sifatda kuzatilayapti. Buni O'zbekiston Milliy universiteti hamda "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti nufuzli xalqaro reytinglarda dunyoning eng yaxshi mingta oliy ta'lim muassasasi qatoridan o'rin olgani misolida ko'rish mumkin.

Yurtimizda bu boradagi ishlar izchil davom ettirilib, 2030-yilga qadar kamida 5 ta oliygohtni umumiy reyting bo'yicha, yana 10 tasini fan yo'nalishlari kesimida dunyoning eng yaxshi 500 ta universiteti qatoriga kiritish maqsad qilingan. Shu bilan birga, 100 ta oliygoht dasturini xalqaro

bilan belgilanadi. Prezidentimiz yaqinda mamlakat yoshlari bilan uchrashuvda ularga qaratayotganidek, "bugungi kunda davlatlar hududi bilan emas – bilimi bilan, aholi soni bilan emas – texnologiyasi bilan, tabiiy boyliklari bilan emas – inson kapitali bilan raqobatga kirishmoqda. Endi zamonaviy ilm-fan va tafakkur mahsulul bo'lgan yangi iqtisodiyot – bilimlar iqtisodiyoti hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda".

Shu bois bugun eng katta investitsiya aynan ta'lim sohasiga tikilmoqda. Buni statistik hisobotlar ham tasdiqlaydi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, o'zbekistonliklar 2026-yilning dastlabki 5 oyida ta'lim xizmatlari uchun 18,8 trln. so'm mablag' sarflagan. Ushbu ko'rsatkich 2025-yilning mosh davridagiga nisbatan 21 foiz oshgan. Ta'lim xizmatlari tarkibida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar eng yuqori ulushga ega bo'lib, jami ta'lim xizmatlarining 44,7 foizini tashkil etdi.

Jadid bobolarimiz orzu qilgan zamon

Prezidentimiz faoliyatining dastlabki yillaridanog yangi O'zbekistonni bunyod etishni, uchinchi Renessans poydevorini yaratishni maqsad qilib qo'yarkan, odamlar ongu tafakkurini o'zgartirish, hayotga qarashlarini isloh etish, milliy q'urumi yuksaltirish orqali yangi davr kishisini tarbiyalashni eng dolzarb masalalardan biri sifatida ilgari surmoqda. Bu yo'lida qiyosi yo'q inqilobiy o'zgarishlar amalga oshirilib, qator qonun, farmon va qarorlar imzolandi. Ularda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Ushbu jarayonda ta'lim tizimini rivojlantirish barobarida, rahbarlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, lavozim kurslariga layoqatli va iste'dodli insonlarni saralab qo'yish chora-tadbirlari ko'rilayotgani quvonarli hol. Chunki sanoatlashgan jamiyat o'z o'rnini bilimga asoslangan raqamli jamiyatga bo'shatib berayotir. Dunyoda bilimli rahbarlar va bilimi yo'q insonlar o'rtasida yangi chiziqli tortilyapti. Shu bois davlatimiz rahbari tomonidan bugun "qumdagi marvarid"lar terilib, yosh, serg'ayrat va bunyodkor hukumat shakllantirilmoqda. Buning uchun kadrlar shunchaki tanlab olinmayapti, aksincha, iste'dodli rahbar kadrlar shakllantirilmoqda. Negaki, sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimida an'anaviy ravishda mehnat jamoalariga rahbarlik qilishning avtoritar uslubi keng tarqalgan edi. Bozor iqtisodiyotiga o'tilishi, mamlakatdagi ijtimoiy hayotni demokratlashirish jarayonlari, biznes sohalarning kengaytirilishi, xo'jalik yuritishning turli, jumladan, nodavlat shakllarning vujudga kelishi kadrlar salohiyatini innovatsion o'stirish va rahbarlik uslubini tubdan o'zgartirishni qat'iy talab qildi. Shubhasiz, bunda ham ta'lim najotkor kuch sifatida yordamga keldi.

Biz ozod va obod yurtning baxtiyor fuqarolarimiz. Eng katta baxtimiz shuki, jadid bobolarimiz, ulug' allomalarning orzu qilgan zamonda yashayapmiz. Yangi O'zbekistonni bunyod etish hamda uchinchi Renessansga asos solishdek tarixiy jarayonga guvoh bo'lyapmiz.

Endilikda bu olamshumul o'zgarishlarning kuzatuvchisi emas, uning faol ishtirokchisiga aylanmog'imiz zarur. Zotan, qo'shilar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatlar, eng huquqli xalqaro aloqalar, madaniyat va ma'naviyat jabhasidagi erkinliklar, fan, ta'lim va ilimga berilayotgan katta e'tibor – bular shunchaki ish emas. Uni chuqur his etish, o'zgarish va yangilanishni yanada boyitish uchun hamma o'z yuragida inqilob qilishi lozim. Uyg'onish kerak! Bog'cha tarbiyalanuvchilari, maktab o'quvchilaridan tortib, katta-kichik mutaxassislar, rahbarlar – barcha birdek yangi O'zbekiston hissidan uyg'onishimiz shart. Mudrab yotmasligimiz zarur.

Unutmaylik, mudroqlik, hafsalasizlik jonajon O'zbekistonimiz taraqqiyotiga faqat tushov bo'ladi.

Zavquv shavqni, shijoat bilan ishlashni yangi O'zbekiston me'moridan o'rganaylik!

Bakridin ZARIPOV,
biologiya fanlari doktori, professor,
Jahon fiziologlar jamiyati (Stokgolm) akademigi,
"Do'stlik" ordeni sohibi.

MADANIY DIPLOMATIYA – TASHQI SIYOSATNING TA'SIRCHAN QUDRATI

O'tgan haftada davlatimiz rahbariga taqdim etilgan madaniyat va san'at sohasidagi istiqbolli loyihalarda milliy madaniy merosni asrab-avaylash, uni ilmiy asosda o'rganish va eng muhimi, dunyo jamoatchiligiga munosib tarzda taqdim etish masalalari ustuvor o'rin egalladi.



Xususan, 2026-yil sentabr oyida Dohadagi Islom san'ati muzeyida o'tkazilishi rejalashtirilgan "Uzbekistan: Heritage in Motion" ko'rgazmasi hamda shu yil noyabr oyida Milandagi "Prada Foundation"da tashkil etiladigan "Global Antiquity" xalqaro arxeologiya ko'rgazmasi O'zbekistonning boy sivilizatsion merosini jahon ilmiy va madaniy jamoatchiligiga keng namoyish etadi. 2027-yilda esa Venetsiyadagi Palazzo

Grimani va Yaponiyaning Nara milliy muzeyida bronza davridan ilk O'rta asrlargacha bo'lgan tariximizni aks ettiruvchi 200 dan ortiq arxeologik topilmalarning ko'rgazmasi uyushtirilishi rejalashtirilgan. Milandagi Qirollik saroyi (Palasso Reale)da esa 150 dan ziyod amaliy san'at namunalari – so'zana, ikat, oltin kashtachilik va zargarlik buyumlari namoyishi ishtirokchilari hayratini oshirishiga ishonamiz.

Bu O'zbekistonning tarixiy merosi dunyo muzeylari va ilmiy markazlari tomonidan yuksak e'tirof etilayotganini anglatadi. Shu bilan birga, mamlakatimiz tashqi siyosatining ajralmas qismiga aylangan madaniy diplomatiya davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va sheriklikni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikni rag'batlantirish, investitsiyalar va turizm oqimini ko'paytirish hamda xalqlar o'rtasidagi gumanitar aloqalarni kengaytirishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'layotgani ifodasidir.

Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan siyosatning yana bir muhim jihati – madaniy merosni saqlash va uning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirishga qaratilayotgan e'tibordir. Poytaxtimizning markazida joylashgan Romanovlar saroyida Davlat san'at muzeyi filialining tashkil etilishi, unda 300 ga yaqin eksponatlardan iborat doimiy ekspozitsiya yaratilishi, Muxtor Ashrafiy uy-muzeyining restavratsiya qilinishi va uni zamonaviy multimedia, xavfsizlik hamda iqlim nazorati tizimlari bilan jihozlash ishlari milliy

Oliy Majlis tomonidan madaniyat, madaniy meros, muzeylar, kreativ iqtisodiyot va xalqaro gumanitar hamkorlik sohasida qabul qilinayotgan qonunlar hamda amalga oshirilayotgan parlament nazorati mazkur islohotlarning izchilligi va samaradorligini ta'minlashga hissa qo'shadi. Zero, kuchli huquqiy asos va samarali parlament nazorati madaniy diplomatiya sohasidagi davlat siyosatining muvaffaqiyatini ta'minlaydigan muhim omillardan biridir.

Shu ma'noda, madaniy diplomatiya nafaqat mamlakatimizning boy tarixi va milliy qadriyatlarini jahonga tanitish, balki Yangi O'zbekistonning xalqaro nufuzini mustahkamlash, xalqlar o'rtasidagi ishonch va hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladigan uzoq muddatli strategik yo'nalish sifatida o'z ahamiyatini yanada oshirib bormoqda.

Oydin ABDULLAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari
qo'mitasi raisi o'rinbosari.

Samarqand viloyatining Jomboy tumanida joylashgan Mingtepa arxeologik yodgorligida olib borilayotgan tadqiqotlar davomida milodiy VIII asrga oid ehtimoliy hukmdorlar saroyining me'moriy qoldiqlari aniqlandi.



JAHON CHEMPIONATI YAKUNLANDI

AQSh, Meksika, Kanada futbol maydonlarida qariyb 40 kun davom etgan jahon chempionati o'z yakuniga yetdi.

Yigirma uchinchi bor tashkil etilgan mundial tarixda turli rekordlar bilan yodda qoladigan bo'ldi. Birinchi navbatda, jahon birinchi ligi ilk bor 3 ta mamlakatda o'tkazildi. Kanada birinchi marta mezbonlikni qo'lga kiritgan bo'lsa, AQShda ikkinchi marotaba (dastlabkisi 1994-yil) hamda Meksikada uchinchi bor (1970 va 1986-yillar) turnir muvaffaqiyatli uyushtirildi. 2026-yilgi shiddatli bahslarda stadionlarga tashrif buyurgan muxlislar soni bo'yicha yangi rekord o'rnatildi.

"Reuters" axborot portali ma'lumotiga ko'ra, turnirning 104 ta uchrashuvini jami 6 mln. 810 ming 966 nafar tomoshabin bevosita jonli kuzatgan. Avvalgi rekord 1994-yilda AQShda bo'lib o'tgan jahon chempionatiga tegishli edi. O'sha mundial o'yinlariga jami 3 mln. 587 ming 538 nafar muxlis kelgan. Shu tariqa "JCH – 2026" ko'rsatkichi avvalgi rekorddan qariyb ikki baravar yuqori bo'ldi.

Musobaqa ishtirokchilari soni esa 48 taga yetkazilib, mazkur mundialda 4 ta milliy terma jamoa – O'zbekiston, Iordaniya, Kabo-Verde va Kyurasao davlatlari o'z debutlari bilan muxlislariga cheksiz quvonch bag'ishladi. Xususan, 34 yillik orzularning ro'yobiga sababchi O'zbekiston milliy terma jamoasi mundialdagi "K" guruhida dunyo futbolida o'z o'rniga ega Portugaliya, Kolumbiya va Afrika qit'asida shov-shuv ko'targan Kongo DR terma jamoalariga qarshi kuch sinashdi. To'g'ri, natijalar maqtangulik bo'lmasa-da, futbolchilarimiz ko'rsatgan o'yin kuchli tanqidlardan yiroq edi. Turnirda Jahongir O'ro'rov va Behroz Karimov kabi yoshlar kashf etildi. Hozirda ularga xorij klublaridan jiddiy takliflar bor. FIFA taqdim qilgan rasmiy statistikasi, O'zbekiston milliy terma jamoasi himoyachisi Abdugodir Husanov mundial davomida

36,46 km/soat tezlik qayd etdi. Himoyachi barcha futbolchilar o'rtasida 6-o'rinni egallagan bo'lsa, pozitsiyadoshlar orasida 3-o'rinni zabt etgan. Turnir finalida Ispaniya terma jamoasi Argentinani 1:0 hisobida mag'lub etib, jahon chempionligini qo'lga kiritdi. Uchinchi o'rin uchun o'tkazilgan bahsda esa Angliya terma jamoasi fransuzlar ustidan 6:4 hisobida g'alaba qozondi.

"Manchester Siti" yarimhimoyachisi Rodri 2026-yilgi jahon chempionatining "Eng yaxshi futbolchisi" deb topildi. 30 yoshli futbolchiga "Oltin to'p" sovrini Argentina ustidan qozonilgan final g'alabasidan so'ng topshirildi. Shuningdek, Kilian Mbappe sakkiz uchrashuvda o'nta gol urib, eng yaxshi to'purar sifatida "Oltin butsa"ni qo'lga kiritdi. Ispaniya terma jamoasi a'zolari jahon birinchi ligining boshqa asosiy individual mukofotlariga ham ega chiqdi. Darvozabon Unai Simon turnirning eng yaxshi posboni sifatida "Oltin qo'lqop" bilan taqdirlandi. U sakkizta uchrashuvning yettitasida o'z darvozasi daxlsizligini saqlab, butun musobaqa davomida faqat bir marta gol o'tkazdi. "Barselona" jamoasi himoyachisi 19 yoshli Pau Kubarsi jahon chempionatining "Eng yaxshi yosh futbolchisi" deya e'tirof etildi.

Endi navbatdagi jahon chempionati 2030-yilda Ispaniya, Portugaliya va Marokash mezbonligida o'tkaziladi. Mundialning 100 yilligi munosabati bilan turnirning dastlabki uchta uchrashuvi Janubiy Amerikaning Urugvay, Argentina va Paragvay davlatlarida tashkil qilinishi rejalashtirilgan.

Sunnatilla ISLOMOV
("Xalq so'zi").

Yurtimiz yoshlari – "Gothia Cup – 2026" g'olibi

Shvetsiyaning Gyteborg shahrida dunyodagi eng yirik yoshlar va inklyuziv futbol musobaqalaridan biri – "Gothia Cup – 2026" xalqaro turniri bo'lib o'tdi.



1975-yildan buyon an'anaviy ravishda o'tkazib kelinayotgan ushbu musobaqada bu gal dunyoning 78 mamlakatidan 1 956 ta jamoa ishtirok etdi. Va 124 ta maydonda qariyb 4 900 ta o'yin bo'lib o'tdi.

Turnir doirasida minglab o'yinchilar turli yosh toifalari va yo'nalishlar bo'yicha o'zaro bahs olib borib, sport orqali do'stlik, o'zaro hurmat va inklyuzivlik g'oyalari keng targ'ib qilindi.

Musobaqada mamlakatimiz sharafiga "Special Olympics Uzbekistan" tashkilotining o'g'il bolalar va qizlar jamoalari munosib himoya qiladi. O'zbekiston delegatsiyasi turnir davomida yuqori sport mahorati, jamoaviy hamjihatlik va g'alabaga intilishini namoyon etdi.

Turnir yakunlariga ko'ra, yurtimizning o'g'il bolalar jamoasi o'z toifasida barcha raqiblarini mag'lub etib, chempionlikni qo'lga kiritdi. Qizlar jamoasi esa finalga qadar muvaffaqiyatli ishtirok etib, musobaqaning kumush medali sohibi bo'ldi.

"Dunyo" AA.
Gyteborg

G'oyadan sanoatgacha

UNIVERSITET ILMI QACHON ZAVOD MAHSULOTIGA AYLANADI?

Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida bir yarim milliondan ziyod talabalar tahsil olmoqda. Bu ulkan salohiyat, degani. Biroq u o'z-o'zidan yangi texnologiya, yangi mahsulot va yangi ish o'rinlariga aylanmaydi. Buning uchun ilm bilan ishlab chiqarishni bog'laydigan maxsus "ko'priklar" – ilmiy parklar zarur.

Nuqtai nazar

Dunyo iqtisodiyotida raqobat faqat xomashyo yoki arzon ishchi kuchi bilan emas, bilim, texnologiya hamda innovatsiya hisobiga olib boriladi. Universitet laboratoriyasida tug'ilgan g'oya prototipga, prototip sanoat namunasiga, u esa bozordagi mahsulotga aylanishi uchun butun boshli zanjir uzluksiz ishlashi kerak. Jahon tajribasida bu zanjirni aynan ilmiy parklar boshqaradi.

Xo'sh, O'zbekistonda bu borada qanday imkoniyatlar bor va ulardan qanday foydalanish lozim?

Bu borada bizda salohiyat yetarli, faqat uni tizimli ishga solish kerak, xolos. Raqamlarga nazar tashlaylik. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, 2025/2026 o'quv yili boshida yurtimiz oliy ta'lim tashkilotlarida 1 mln. 535 ming nafar talaba tahsil olgan. Oliygo'har soni filiallari bilan birga 222 taga, xorijiy oliy o'quv yurtlari esa 30 taga yetgan. Bu kichkina ko'rsatkich emas.

Bundan tashqari, ayni yo'nalishda huquqiy zamin ham yaratilgan. Jumladan, "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida", "Innovatsion faoliyat to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar, Prezidentimizning 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi ustuvor vazifa etib belgilangan.

Ammo tan olish kerak, huquqiy imkoniyat bilan amaliy natija o'rtasida hali institutsional bo'shliq saqlanib qolmoqda. Ayrim universitetlarda ixtironi baholash, litsenziya shartlarini ishlab chiqish, olim va dargoh ulushini belgilash, korxona buyurtmasini ilmiy mavzuga aylantirish bo'yicha aniq ichki tartib-qoidalar yetishmaydi. Natijada

iste'dodli olimning ishlarnasi maqola yoki patent darajasida qolib, zavodga yetib bormaydi. Bu borada maqtansa arzigulik yaxshi ishlarimiz ham yo'q emas. Ya'ni mamlakatimizda innovatsion infratuzilmaning muvaffaqiyatli namunalari shakllanib ulgurgan. "IT Park Uzbekistan" bunga yorqin dalil. Rasmiy ma'lumotga ko'ra, 2025-yil iyuliga kelib bu ekotizimda 2 990 dan ortiq kompaniyalar faoliyat yuritgan, 44 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratilgan, raqamli mahsulotlar 90 ta mamlakatga eksport qilingan. Imtiyozlar, "bir darcha" xizmati va kadrlar ekotizimi birlashganda qanday tez o'sishga erishish mumkinligini shu tajriba ko'rsatdi.

Yana bir misol – "Tashkent Pharma Park" farmatsevtika klasteri uchun 190 gektar maydon ajratilgan bo'lib, birinchi bosqichda ma'muriy markaz, tadqiqot markazi, dori vositalari xavfsizligi laboratoriyasi, klinik tadqiqotlar markazi va Farmatsevtika texnik universitetini qamrab oluvchi texnopark barpo etilmoqda. Bu – universitet, laboratoriya, nazorat idorasi va ishlab chiqaruvchini bir zanjirga birlashtirgan model.

Biroq bir haqiqatni unutmashlik lozim: ilmiy park – bu shunchaki bino va imtiyozli maydon emas. Agar parkda faqat ijara taklif etilsa-yu universitet laboratoriyalari, olimlar va talabalar bilan muntazam aloqa bo'lmasa, u ilmiy park emas, oddiy ko'chmas mulk loyihasi bo'lib qoladi. Parkning qiymati devorlarida emas, texnologiyalar transferida.

Shu o'rinda, "universitet – sanoat" hamkorligini sekinlashtirayotgan to'rtta tizimli muammoni alohida aytib o'tish joiz.

Birinchi, axborot asimmetriyasi, ya'ni korxonalar universitetlarda qanday laboratoriya va mutaxassislar borligini bilmaydi, universitetlar esa korxonalarning texnologik muammolaridan bexabar. Yechim oddiy: har yili yangilanadigan "texnologik muammolar banki" va "universitet kompetensiyalari katalogi"ni yagona raqamli platformada bog'lash masalasi bilan bog'liq.

Ikkinchi, professional vositachilar arzigulik yaxshi ishlarimiz ham yo'q emas. Ya'ni mamlakatimizda innovatsion infratuzilmaning muvaffaqiyatli namunalari shakllanib ulgurgan. "IT Park Uzbekistan" bunga yorqin dalil. Rasmiy ma'lumotga ko'ra, 2025-yil iyuliga kelib bu ekotizimda 2 990 dan ortiq kompaniyalar faoliyat yuritgan, 44 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratilgan, raqamli mahsulotlar 90 ta mamlakatga eksport qilingan. Imtiyozlar, "bir darcha" xizmati va kadrlar ekotizimi birlashganda qanday tez o'sishga erishish mumkinligini shu tajriba ko'rsatdi.

Uchinchi, moliyalashtirishdagi "o'lim vodiysi": grantlar tadqiqotga, investor esa tayyor mahsulotga qiziqadi, o'rtadagi prototip va sanoat sinovi bosqichi esa moliyasiz qoladi.

To'rtinchi, natijani baholash tizimi: forum va memorandumlar soni emas, joriy etilgan texnologiya, litsenziya daromadi va yaratilgan ish o'lni asosiy mezon bo'lishi kerak.

Ana shu muammolarga yechim sifatida Toshkent kimyo-texnologiya instituti negizida ixtisoslashtirilgan ilmiy park tashkil etish modeli ishlab chiqildi. Bu umumiy yo'nalishdagi biznes-inkubator emas – kimyo, oziq-ovqat, neft-gaz, qurilish materiallari, biotexnologiya, farmatsevtika va ekologik muhandislikka ixtisoslashtirilgan texnologik platforma bo'ldi.

Park besh konturdan iborat: sanoat muammolarini texnik topshiriqqa aylantiruvchi markaz; umumfoydalanishdagi laboratoriya va prototiplash markazi; texnologiyalar transferi va intellektual mulk ofisi; startap va spin-off akseleratori; sanoat doktoranturasi va dual ta'lim platformasi. "O'zkimyosanoat" tizimi, neft-gaz va oziq-ovqat korxonalarining real buyurtmalari parkning asosiy "yoqilg'isi" bo'ldi.

Ustuvor yo'nalishlar ham aniq: maxsus kimyoviy reagentlar, suv tozalash sorbentlari va membranalar, sanoat katalizatorlari, biojaraluvchi qadoqlash materiallari, qurilish va maishiy kimyo, chiqindilardan ikkilamchi

Botir USMONOV,
Toshkent kimyo-texnologiya
instituti rektori, texnika fanlari doktori,
professor.



ASALARI KO'RMASIN ZAVOL

Tabiatning bu mo'jizasini asrab-avaylash kimga bog'liq?

Yaratganning tom ma'noda mo'jizasi sanalgan asalari va uning mahsulotlari shifobaxsh. Sinchiklab kuzatsangiz, bu jonivorlar shu qadar zahmat-u ahillik timsoliki, ko'ngillarga zavq ulashadi. Va yana asalarichilik bilan shug'ullanish insonning o'ziga ham, oilasiga ham ruhiy quvvat bag'ishlaydi. Bu jonivorning chaqiqob nobud bo'lishi, zahrining kishiga azob emas, balki quvvatlantiruvchi sifatidagi ta'sirida ham beqiyos hikmat bor. "Kambag'allikdan, farzandlaringizni yalqovlikdan xalos etmoqchimisiz, asalarichiga aylaning", deydi donolar. Naqadar haq gap. Bu jonivor eng sara gullardan, tog'lar-u qirlardagi, daraxtlar-u butalardan nektar yig'adi, qalbi mehrga to'la shoir singari dunyoni ezigulikka chulg'agisi keladi, go'yo.

Muammo va yechim

Ona tabiatda tabiiy muvozanatni saqlash, ekinlarni changlatish va shu orqali hosildorlikni oshirishda asalari o'lasining o'rnini bosadigan beminnat ko'makchining o'zi yo'q. Ba'zi olimlar, mabodo, asalari qirilib ketsa, Yer yuzida hayot tugaydi, degan fikrda. Qaysi yoshda bo'lmasin, shu sohaga kirgan kishi ko'p ham xastalikka uchramasligini esa "COVID-19" pandemiyasi davrida asalarichilar orasida xastalik uchramagani misolida yaqqol ko'rdik.

Mutaxassislarning e'tirof etishicha, Vazirlar Mahkamasining shu yil 20-apreldagi "Asalari oilalarini joylashtirish, ko'chirish va ular nobud bo'lishining oldini olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori soha rivojiga jiddiy turki beradi. Chunki ushbu hujjatga ko'ra, yer egasi go'za maydonlariga kimyoviy vositalar ishlatishdan avval asalarichini "Jonivorlar qo'nim topgan qutlaringizni xavfsiz joyga ko'chiring", deya ogohlantirishi

shart. Shuningdek, qarorda asalarilar nobud bo'lishining oldini olish ishlariga Qishloq xo'jaligi vazirligi, boshqa tegishli idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari, qolaversa, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, barcha yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar shaxsan mas'ul ekanligi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston asalarichilari uyushmasi raisining o'rinbosari Navroz Barakayevning aytishicha, joylarda mazkur qaror mazmun-mohiyatini tushuntirish ishlariga jiddiy kirishilgan. O'tgan hafta Farg'ona vodiysidagi uchta viloyatda bunday tadbirlar o'tkazilib, ularda mutasaddilar, taniqli olimlar qatori soha bilimdonlari, tajribali asalarichilar ham ishtirok etishdi.

Darvoqe, yuqoridagi hujjatda sohani barqarlashtirishga ham alohida e'tibor berilgan. Qishloq xo'jaligi vazirligi uch oy muddatda "Agroko'makchi" mobil dasturining "CropAgro" axborot tizimiga integratsiya qilinishi va bu tarmoqdan O'zbekiston asalarichilari uyushmasi muntazam ravishda foydalanishi uchun zarur imkoniyatlar yaratiladi.

Xo'sh, asalarichini ogohlantirish masalasiga nega davlat miqyosida e'tibor qaratilmoqda? Nega asalari zavol ko'rmasin, sohani rivojlantirish orqali ro'zg'oringiz to'kin bo'lsin, yurtimizning bu borada ham salohiyati oshsin, degan talab qo'yilmoqda?

Yodingizda bo'lsa, bundan roppa-rosa bir yil avval gazetamiz va uning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida

"Fermer kimyoviy vositalarni meni ogohlantirmasdan sepgani sababi paxtazorning chetiga qo'yilgan asalarilarim yoppasiga qirilib ketdi", mazmunidagi tashvishli xabarlar e'lon qilingandi. Aslida esa go'zani changlatib, hosildorlikni oshirgani bois paxtachilik bilan shug'ullanayotgan klaster asalarichiga xizmat uchun haq to'lashi kerak edi. Rivojlangan davlatlar, masalan, AQShda, Xitoyda shunday. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-iyundagi "Asalarichilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ham bu talab o'z aksini topgan. Shunga qaramay joylarda changlatish xizmati uchun to'lov o'rniga paxtazorga dori purkaldi va paykal chetiga qo'yilgan uyalar asalari o'lig'iga to'lib ketdi.

– Yozyovon, Oltiariq, Qo'shtepa tumanlarida minglab asalarilari o'lib ketdi. Masalan, yozyovonlik Sherzod Mirzamaxmudov bir kunda 30 uya asalarisidan mahrum bo'ldi. Agar har bir oila bir mavsumda 20 kilogramm asal berishini, bolning kilosini kamida yuz ming so'mdan sotish imkonini borligini e'tiborga olsak, ko'rilgan zarar 60 mln.

so'mni tashkil etadi. Endi buni viloyat va respublika miqyosida xomcho't qilib ko'ravering, – deydi farg'onalik mutaxassis Sherali Suyarqulov. – Yana bir gap: bugun respublikamiz bo'yicha har uya asalari oilasiga to'g'ri kelayotgan bol miqdori 6 kilogrammdan oshmaydi. Bu juda kam. Vaholanki, asal ishlab chiqarish va uning eksportini hozirgiga nisbatan kamida besh karra oshirish mumkin.

Asalarichilik otakash bo'lgan sho'rchilik Ravshan Ubaydullayev o'tgan yil 80 uya asalari oilasidan mahrum bo'ldi. Sababi, u bilan hamkorlik qilgan fermer "kattalar"ning qistovi bilan dalaga dori sepgan. Zararni kim to'laydi? Hech kim. Vaholanki, Ravshanning ukasi ham fermer, u paxtazorida biologik usulni qo'llaydi, zahar sepmaydi. Chunki asalarichilik kasbining nechog'li mashaqqatli, ayni paytda savobli ekanini yaxshi biladi-da.

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mita raisi Anvar To'ychiyevning ta'kidlashicha, asalarichilik sohasidagi mavjud muammolarning yechimi soha manfaatini himoyalaydigan qonunning qabul qilinishiga ham bog'liq. Bu masala Senat qo'mitasi yig'ilishida ko'tarilgan. Shu bois tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda ushbu qonun loyihasi ishlab chiqilmoqda. Unda O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishini

nazarda tutgan holda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bilan bog'liq xalqaro tajriba, mahalliy shart-sharoitlar ham e'tiborga olinadi.

Buloqboshi tumanida yashovchi tajribali asalarichi Odiljon O'rinov esa muammoning yanada tashvishli jihatiga urg'u beradi.

– Bu yerda gap faqat asalari o'lasining nobud bo'layotganida emas, balki aholi o'rtasida, ayniqsa, dalada ishlaydigan ayollar orasida saraton kasali ko'payib borayotgani, biz o'zimizni o'zimiz zaharlayotganimiz haqida bormoqda. Asalarilarning o'limi ko'rinib turgan holat, odamlarning zimdan umrini qirg'ayotgan illati esa hech kim tan olishni istamayapti. Asalarichilar uyushmasi haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu idoraning qo'li kalta, u goh Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimiga o'tadi, goh Savdo-sanoat palatasi tarkibiga kiritiladi. Yaqinda esa Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi qo'mitasi ixtiyoriga berildi. Achchiq bo'lsa-da, aytay, uyushma o'tgan yil ham, menimcha, bu yil ham asalarichilarni himoya qila olmaydi. Shu bois changlatish mavsumi boshlanib ketgan bo'lsa-da, ko'pchilik go'za maydonlari chetiga asalarilari o'lasini olib borishga cho'chiyapti. Chunki o'tgan yilgidek ahvol takrorlanishi mumkin-da, – deydi u.

Abdunabi ALIQULOV
("Xalq so'zi").

2026/2027-o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalari talabalariga respublika bo'yicha jami 776 ta davlat stipendiyasi ajratiladi, shundan 187 tasi Prezident stipendiyasi hissasiga to'g'ri keladi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 22 170 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; ko'libiy 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Nabatchi muharrir F. Bozorov.
Masahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 01.46 Topshirildi – 02.00 1 2 3 4 5 6